

T A' L I M Z I Y O S I

BARCHASI SHU YERDAN UA SHU ONDAN BOSHLANADI

UNIVERSITET
GAZETASI 4-son
Gazeta ichida gazeta



magistrlar kursni muvaffaqiyatli tamomlagan bo'lsa, 2025-yil aprel oyiga kelib, bu ko'rsatkich 5 barobarga ortib, qariyb 30 nafarga yetdi.

M a z k u r kurs yakunida tinglovchilarga ikki xil turdagi sertifikatlar, ya'ni kursda ishtirok etganligi (Certificate of attendance) yoki kursni muvaffaqiyatli tamomlaganligi (Certificate of completion) haqida sertifikatlar taqdim

UNIVERSITETDA "KARYERA KUNI" TASHKIL ETILDI



Universitetda talabalar uchun "Karyera kuni" axborot-tanishtiruv tadbiri bo'lib o'tdi. Unda turli mulkchilik shaklidagi tashkilot va muassasalar o'zlarida mavjud bo'sh ish o'rinlari bilan ishtirok etdi.

Tadbir doirasida ish beruvchi vazirlik, idora, korxona va tashkilotlar tomonidan mavjud bo'sh ish o'rinlari bo'yicha axborotlar taqdim etildi. Shu bilan birga, universitet bitiruvchi talabalar to'g'risidagi ma'lumotlarni ish beruvchilar e'tiboriga havola etdi.

Shuningdek, yirik kompaniyalar vakillari ishtirokida mahorat darslari ham tashkil etildi.

Yakunda ish beruvchi tashkilotlar tomonidan 3 ming nafardan ziyod talabalar bilan suhbatlar o'tkazilib, ularning ishga

joylashish va amaliyot o'tashlari uchun yo'llanmalar berildi.

Shuningdek, "Karyera kuni" doirasida innovatsion hamkorlikni yo'lga qo'yish, muammoli masalalar yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish, o'quv rejalariga amaliyotchi mutaxassislar fikrini inobatga olgan holda tegishli o'zgartishlar kiritish, talabalarning malakaviy amaliyoti va tajribasini samarali tashkil etish masalalari ko'rib chiqildi.

Jumladan, amaliyotchi mutaxassislarni o'quv jarayoniga jalb etish, bitiruv malakaviy ishlari hamda magistrlik dissertatsiyalarini ish beruvchi tashkilotlar buyurtmalari asosida tayyorlash kabi masalalar muhokama etildi.

O'ZA

Chirchiq davlat pedagogika universitetida "Xalqaro darajadagi pedagog kadrlar tayyorlash strategiyasi" asosidagi xalqaro Kembrij platformasidagi kasbiy rivojlanish onlayn kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan talabamagistr va tayanch doktorantlarning soni kengayib bormoqda.

Respublika miqyosida yagona hisoblangan "Xalqaro darajadagi pedagog kadrlar tayyorlash strategiyasi" mavjud bo'lib, universitet rektori Gafurjon Muxamedov loyiha rahbari hisoblanadi.

Loyiha asosida 2024-yilda 6 nafar professor-o'qituvchilar, 8 nafar talaba-

etiladi. Besh hafta davom etgan ushbu kasbiy rivojlanish kursida o'qituvchi va talabalarimizning barchasi muvaffaqiyatli tamomlaganlik sertifikatlariga ega bo'lishdi.

Bunday kurslarni tamomlagan o'qituvchi hamda bo'lajak o'qituvchilarimiz universitetda xalqaro darajada o'qituvchilarni tayyorlash, Prezident maktablari va ixtisoslashgan maktablar uchun kadrlarni tayyorlashda o'z hissalarini qo'shishni maqsad qilishgan, shuningdek, Kembrij xalqaro ta'lim dasturlarining keyingi malaka oshirish bosqichlarini davom ettirishni rejalashtirishgan.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Fizika va kimyo fakulteti Fizika kafedrası tomonidan "Raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda individual ta'lim imkoniyatlari" mavzusida amaliy-metodik tadbir o'tkazildi. Tadbirning asosiy maqsadi zamonaviy xalqaro professional standartlarga javob beradigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jarayonida individual ta'limning imkoniyatlarini namoyish etishdan iborat bo'ldi.

INDIVIDUAL TA'LIM IMKONIYATLARI



tayyorlangan namoyishli darslar (DEMO LESSONS) alohida qiziqish uyg'otdi.

Xususan, "4+2" dasturi doirasida talabalarning zamonaviy laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ishlari, eksperimentlarning didaktik asosda dars mavzulariga mos tarzda o'tkazilishi, raqamli texnologiyalar (simulyatorlar, interaktiv

Tadbir davomida talaba va professor-o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan bir qator qiziqarli amaliy ishlari va loyihalar taqdim etildi. Jumladan, shamol generatorlari, mini GES ishlash prinsipi, kungaboqar texnologiyasi, raketa modellari, onlayn teleskop yordamida astronomiya kuzatuvlari hamda "aqlli uy" maketlari namoyish qilindi.

Shuningdek, tadbirda fizika fanini o'qitish metodikasi, fizik eksperimentlarni tashkil etishdagi didaktik talablar, raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari va o'yin elementlariga asoslangan ta'lim metodlari haqida batafsil ma'lumot berildi. Talabalarning amaliyotlari uchun mo'ljallangan "4+2" dasturi doirasida bajarilgan ishlar va talabalar tomonidan

geymifikatsion metodlar va STEAM konsepsiyasiga asoslangan astronomik kuzatuvlar yoritildi. Mentimeter platformasida tashkil etilgan viktorinalar, Stellarium dasturidan foydalanilgan kuzatuvlar va integratsiyalashgan ta'lim loyihalari talabalar faolligini oshirdi.

Tadbir yakunida universitet rektori, kimyo fanlari doktori, professor Gafurjon Muxamedov so'zga chiqib, tadbirning muhimligini ta'kidlab o'tdi va barcha ishtirokchilarga minnatdorlik bildirdi. Umuman olganda, tadbir talabalarning amaliy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish hamda innovatsion g'oyalar va loyihalarni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

OLIYGOHDA SPEKTAKL NAMOYISHI

Oliygohta davlatimiz rahbari tomonidan 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ilgari surilgan muhim tashabbuslari ijrosi yuzasidan Gumanitar fanlar fakulteti talabalari tomonidan "Shaytonning tangriga isyon" nomli spektakl namoyishi bo'lib o'tdi.

Talabalar spektakli orqali o'z hayotini, ilmini, mehnatini vatan va millat ravnaqiga baxshida etgan, jahon taraqqiyotiga o'zining benazir hissasini qo'shgan ulug' ajdodlarimizdan biri Abdurauf Fitrat ijodiga e'tibor qaratishdi.

Spektaklda shaytonning ozodlikka, ilm-fanga chorlashi, hayotga ochiq ko'z



bilan qarab, o'z kuchiga suyanib ish tutishga undashi, albatta, Fitratning bilvosita, kinoya, qochirim yo'li bilan aytgan fikrlari o'z aksini topgan.

KELAJAK RAHBARLARI – BUGUNGI TALABALAR



Kuni kecha Chirchiq davlat pedagogika universitetida "Kelajak rahbarlari – bugungi talabalar" nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Unda professor-o'qituvchilar hamda menejment yo'nalishi talabalari qatnashdi.

Uchrashuvga uzoq yillik tajribaga ega rahbarlar taklif etildi. Ular o'zlarining hayotiy tajribalari, bosib o'tgan mashaqqatli yo'llari haqida qiziqarli ma'lumotlar bilan o'rtoqlashdilar.

Muloqot davomida talabalar o'zlarini qiziqitirgan savollarga batafsil javob oldilar.

Tadbirda Toshkent viloyati hokimi maslahatchisi Sh.Xo'jayeva ishtirok etdi.



OILAVIY HAYOT SABOQLARI

Oilada ona, kelin, ayol sifatidagi o'rni mustahkam, bilimli tabarruk zot kelgusida yurtga xizmat qiluvchi barkamol avlodning ustozidir.

Chirchiq davlat pedagogika universitetida yo'lga qo'yilgan "Oilaviy hayot saboqlari" o'quv kursi aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda, desak, xato bo'lmaydi. Joriy yilning oxirgi ikki oyi davomida tashkil qilingan mazkur kurs o'g'il-qizlarimizni hayotga tayyorlashning ma'naviy-ma'rifiy asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etishiga shubha yo'q. Uning mavzulari oilada sog'lom muhit yaratish, turmush o'rtog'ining fe'l-atvorini tushunish, moliyaviy mas'uliyat, farzand tarbiyasi, qaynona-qaynota bilan muloqotda madaniyatli va xushmuomalali bo'lish kabi jihatlarni qamrab olgan.

O'quv dasturlaridan totuv oila qurishda hayotiy ko'nikmalarni mustahkamlash, oilaviy ajrimlarning oldini olish, samimiy munosabatlarga asoslangan sog'lom muhit yaratish kabi dolzarb masalalar o'rin egallagan. Har bir darsda oilaviy hayotning turli jihatlari sahnaviy tarzda yoritilishiga katta ahamiyat berilgan. Mashg'ulotlar universitetning tajribali professor-o'qituvchilari tomonidan olib borilyapti.

Shu jarayonda talaba-qizlarga oiladagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga amal qilish, oila a'zolari o'rtasidagi ishonch va hurmatni saqlash muhimligi alohida tushuntirilyapti. O'z navbatida, yoshlar jamiyatda ijtimoiy munosabatlarga kirishishda nimalarga e'tibor qaratishlari lozimligi o'rgatilmog'da.

O'qishga va oilaviy hayotga bog'liq yangi bilimlar sharofati o'laroq, talabalar o'zlarida ilhom, kuch-quvvat va bilim olishga rag'bat sezishyapti. Xususan, Asila Avazova oilaviy munosabatlar va farzand tarbiyasini boshqarish bo'yicha berilayotgan saboqlar zarur ko'nikmalarni o'rganishga, baxtli oila qurishga yordam berishiga ishonchi komil

ekanini e'tirof etsa, Charosxon Bektayeva oila qurishdagi qiyinchiliklarni yengishda asqotadigan bilimlarni olayotganini, oiladagi mehr-oqibat va ishonchni saqlash, farzandlarga namuna bo'lib, ularni to'g'ri tarbiyalashni o'rganayotganini ta'kidlaydi.

20 soatlik kurs 20 ta dolzarb va hayotiy rivoyatlar, hikmatlar bilan boyitilib, talabalarining fikrlash va tahlil qilish qobiliyati rivojlantirilmoqda. Masalan, "Rashk muhabbat belgisimi?" darsida hissiyotlar boshqaruvi va ishonchni mustahkamlash masalalari muhokama etiladi. "Farosatli kelin – g'iybatdan yiroq" mavzusida jamiyatdagi axloqiy mezonlar va til madaniyati tahlil qilinadi. "Ona bo'lishga tayyormisiz?" deb nomlangan mashg'ulotlar yosh qizlarni onalik mas'uliyati bilan tanishtiradi.

"Oila halovati – jamiyat taraqqiyoti. Oilaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati", "Nikohning mohiyati va ahamiyati", "Oilaviy sirlarni saqlash va oila a'zolari orasida ishonchni mustahkamlash", "Qaynona-qaynotaga yaxshi munosabatda bo'lish sirlari", "Tadbirkorlik va tejamkorlik – oilada moliyaviy mustaqillik va biznesni boshlash" kabi muhim mavzularda olib borilayotgan saboqlar talaba yoshlarni oila masalasiga jiddiy va mas'uliyat bilan qarashga undaydi. Zero, ayol – ona, ayol – ustoz, ayol – tarbiyachi. U ma'naviyatli bo'lsa, jamiyat ham ma'naviyatli bo'ladi. Shu jihatdan qaranganda, mazkur kurs nafaqat alohida shaxs, balki kelajak avlod uchun ham xizmat qiluvchi ulkan ma'naviy investitsiya sanaladi. Bugungi ta'lim faqat dars emas, hayot maktabi bo'lishi kerak. Biz universitetimizda olib borilayotgan ishlar kelgusida yaxshi natijalar berishiga ishonamiz.

Samariddin QORAYEV,
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti yoshlar masalalari va
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi
prorektori

"MINI VOLEYBOL": O'ZBEKISTONDA YANGI SPORT TURI YARATILDI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti Jo'rabek Shukurullayev "Mini voleybol" nomli yangi sport turini yaratdi.

"Mini voleybol" sport turi ilmiy - tadqiqot obyekti sifatida tahlil qilindi. Amaliyotga integratsiyalashtirish jarayoni kechmoqda va universitet talabalari o'rtasida musobaqalar tashkil etilmoqda.

Ushbu sport turi voleybolga qaraganda qator qoidalari bilan farqlanib, yoshlar o'rtasida qiziqarliligi bilan ommalashmoqda. Kelajakda Mini voleybol sport turini maktab dasturlariga kiritish rejalashtirilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yangi sport turi maktab sport inshootlariga mosligi va kam xarajatligi bilan jamoaviy sport turlaridan farqlanadi.

Nafosat HABIBULLAYEVA, CHDPU bitiruvchisi



XALQARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING YANGI BOSQICHI

Oliy ta'lim sohasidagi xalqaro aloqalarning maqsadi talabalar va professor-o'qituvchilar uchun imkoniyatlarni kengaytirish, xorijiy mamlakatlar universitetlari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro tajriba va resurslar almashinuvi orqali ta'lim sifatini oshirish, global dunyoqarashga ega mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Bunday aloqalar ta'lim jarayonini xalqarolashtirish, madaniy almashinuv va xalqaro muhitda ishlash uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi.



Chirchiq davlat pedagogika universiteti va Indoneziya pedagogika universiteti o'rtasida tuzilgan rasmiy hamkorlik bitimi ta'lim sohasida o'zaro taraqqiyotga xizmat qilmoqda. U talabalar va o'qituvchilar almashinuvi, qo'shma ilmiy loyihalar, xorijiy amaliyotlar va ilmiy-tadqiqot ishlarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston global imkoniyatlarga yuz tutayotgan

bir paytda, universitet ham o'z dasturlariga xalqaro tajribalarni jalb qilish va talabalarga dunyo miqyosida bilim olish imkoniyatlarini yaratishga intilmoqda. Indoneziya pedagogika universiteti Janubiy-Sharqiy Osiyodagi yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri sanaladi. Universitet kadrlarni tayyorlash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan tanigan. Indoneziya pedagogika universitetining xalqaro tajribasi va zamonaviy yondashuvlari ChDPUning xalqaro darajadagi ta'lim

berish maqsadlariga to'liq mos keladi. Ta'lim davlatlararo do'stlikni mustahkamlovchi muhim omil bo'lib, akademik almashuvlar, madaniy aloqalar va o'zaro tajriba almashish kabi jabhalarni o'z ichiga oladi.

Universitetlar o'rtasidagi hamkorlik – akademik mukammallikka erishish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish yo'lidagi muhim qadamdir. Ta'lim sohasida hamkorlik, ayniqsa, turizm, madaniyat va savdo kabi



yo'nalishlarda ikki mamlakat o'rtasidagi uzoq muddatli munosabatlar uchun mustahkam zamin yaratadi. Jahon ta'lim hamjamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiya universitetning zamonaviy ta'lim bozorida raqobatbardoshligini oshirishning kaliti bo'ladi.

Zarnigor AKTAMOVA,
Xorijiy til va adabiyoti(ingliz tili) ta'lim
yo'nalishi talabasi

"REGISTRATOR OFISI" – TALABALARNING BEMINNAT KO'MAKCHISI



Chirchiq davlat pedagogika universitetida "Registrator ofisi" faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu yangi tashabbus universitetda ta'lim jarayonini yanada samarali boshqarish va talabalarga xizmat ko'rsatishni yaxshilashga qaratilgan.

Mazkur ofis universitetning markazlashgan xizmati bo'lib, talabalar uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumot va xizmatlarni taqdim etadi. Xususan, talabalarga yordam berish, hujjatlarni rasmiylashtirish, akademik va boshqa turdagi murojaatlarga javob berish kabi tizimli xizmatlar yo'lga qo'yilgan. Bu talabalar uchun katta qulaylik yaratmoqda.

Ushbu zamonaviy tuzilma universitet bosh binosida joylashgan va samarali faoliyat olib borishi uchun barcha qulayliklarga ega. Malakali, bir nechta xorijiy tillarni mukammal egallagan xodimlar ofisda faoliyat ko'rsatishi uchun saralab olindi. Ular talabalik

guvohnomasi, talabalar o'quv varaqasi, o'qish joyidan ma'lumotnoma, akademik ma'lumotnoma, dars jadvali, davomat va o'zlashtirishga oid ma'lumotlar, to'lov-kontrakt shartnomalari, talabalar turar joylariga ariza berish hamda aylanma varaqalarni raqamlashtirgan tarzda murojaatchilarga yetkazadi.

Ofisga tashrif buyurgan murojaatchilar tartibsiz navbat kutib qolmasliklari uchun elektron navbat olish tizimi yo'lga qo'yilgan. Universitetda joriy etilayotgan raqamli "Registrator ofisi" faoliyati qog'oz ko'rinishida yuritiladigan hujjatlarning bekor qilinishiga zamin yaratadi.

Munira BALTAYEVA
Ushbu qo'shsahifa Chirchiq davlat
pedagogika universitetining
Axborot xizmati
tomonidan tayyorlandi.